



XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Xorazm viloyatida kichik tadbirkorlik

2024- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar

Xorazm viloyatida kichik tadbirkorlik

Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar


2024- yilning 1- iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni **22 984** tani tashkil etib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **168** taga kamaygan. yoki **0,7 %** ga pasaygan. Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1000** aholiga **13,7** birlikni tashkil qildi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar


2024- yilning yanvar-iyunida **3 540** ta yangi kichik korxona va mikrofirma (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **14,2 %** ga ko‘p demakdir.

Yuridik shaxs – o‘z mulkida, xo‘jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo‘lgan hamda o‘z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o‘z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo‘la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da‘vogar va javobgar bo‘la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.

2024- yilning 1- iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng yuqori ulushga ega bo‘lgan sohalar bo‘yicha soni va ulushi



2020-2024- yillar 1- iyul holatida faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz), birlikda



Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar

Hududlar bo'yicha 1- iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda

2023- y.


2024- y.

23 152	Xorazm viloyati	22 984
4 253	Urganch sh	4 329
1 873	Xiva sh.	1 763
1 598	Bog'ot	1 582
1 576	Gurlan	1 460
1 804	Qo'shko'pir	1 860
2 543	Urganch	2 545
1 361	Hazorasp	1 398
606	Tuproqqa'l'a	590
1 820	Xonqa	1 805
1 610	Xiva	1 581
1 539	Shovot	1 566
1 422	Yangiariq.	1 475
1 147	Yangibozor	1 030

2024- yil 1- iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni jami **22 984** tani, shundan yangi tashkil etilganlari **3 540** tani tashkil etdi.

2024- yilning 1- iyul holatiga ko'ra hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'pi Urganch shahrida **4 329** tani yoki jamiga nisbatan **18,8 %** ni tashkil etdi.


1- iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda




Kichik tadbirkorlik subyektlarining har 1000 aholiga nisbati

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda*

Urganch sh.	28,2
Xiva sh.	17,8
Bog'ot	11,0
Gurlan	12,0
Qo'shko'pir	12,5
Urganch	13,6
Hazorasp	8,6
Tuproqqa'l'a	13,8
Xonqa	11,6
Xiva	12,4
Shovot	11,8
Yangiariq	14,6
Yangibozor	16,1



Xorazm viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati 1- iyul holatiga, birlikda



2024- yil 1- iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni har **1000** aholiga nisbatan **13,7** birlikni tashkil etib, bu ko'rsatkich 2023- yilga nisbatan **0,3** birlikka kamaygan.


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har **1000** aholiga nisbatini eng yuqori ko'rsatkichi Urganch shahrida **28,2** birlik, Xiva shahrida **17,8** birlik, Yangibozor tumanida **16,1** birlik, Yangiariq tumanida **14,6** birlik, Tuproqqa'l'a tumanida **13,8** birlikka yetdi.

* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)


Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Xorazm viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda

Eng yuqori ko'rsatkich



O'rta ko'rsatkich



Eng past ko'rsatkich



Kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati tuman va shaharlar kesimida tahlil qilinganda, eng yuqori ko'rsatkich Urganch shahrida **28,2** birlik, Xiva shahrida **17,8** birlik, Yangibozor tumanida **16,1** birlik, Yangiariq tumanida **14,6** birlik, Tuproqqa'l'a tumanida **13,8** birlik, Urganch tumanida **13,6** birlik, Qo'shko'pir tumanida **12,5** birlik, Xiva tumanida **12,4** birlik, Gurlan tumanida **12,0** birlik kuzatildi.

Tadbirkorlik faoliyati (kichik tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

2024- yil 1- iyul holatiga har 1000 aholiga to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlari ko'p tashkil etilgan shahar va tumanlar, birlikda

Urganch shahri

28,2

Yangibozor tumani

16,1

Tuproqqa'l'a tumani

14,6

17,8

13,8

Xiva shahri

Yangiariq tumani

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar


Yanvar-iyun oylarida hududlar bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda

2023- y.

2024- y.

374	Urganch sh.	470
183	Xiva sh.	211
260	Bog'ot	292
251	Gurlan	269
288	Qo'shko'pir	252
302	Urganch	336
221	Hazorasp	264
86	Tuproqqa'l'a	76
166	Xonqa	233
182	Xiva	237
365	Shovot	336
259	Yangiariq	370
163	Yangibozor	194


2024- yilning yanvar-iyunida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo‘yicha ulushi, % da




2024- yilning yanvar-iyunida hududlar bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko‘p ulushi Urganch shahri – **13,3 %**, Yangiariq tumani – **10,5 %**, Urganch tumani – **9,5 %**, Shovot tumani – **9,5 %**, Bog'ot tumani – **8,2 %**, Gurlan tumani – **7,6 %**, Hazorasp tumani – **7,5 %** hissalariga to‘g‘ri keldi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

2023-2024- yillarning yanvar-iyunida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda



Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkichiga ega bo‘lgan shahar va tumanlar, birlikda




2024- yilning yanvar-iyunida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha eng ko‘p kichik korxona va mikrofirma savdo sohasida **1 158** ta, sanoatda **863** ta hamda qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida **653** ta yangidan tashkil etilgan.


Viloyatning tumanlari va shaharlari kesimida tahlil qilinganda, eng ko‘p kichik korxona va mikrofirma Urganch shahrida **470** ta, Yangiariq tumanida **370** ta hamda Urganch va Shovot tumanida **336** ta yangidan tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida 2020-2024- yillarning yanvar-iyun oylari davomida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlik



Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlik




So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab - quvvatlash hamda ishbilarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilash bo‘yicha qabul qilingan qaror va farmonlari, shuningdek, bu sohaga berayotgan katta e’tiborlari natijasida, 2020-2024- yillarning yanvar-iyun oylari davomida jami **14 750** ta kichik korxona va mikrofirma yangidan tashkil etildi. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar sohalar kesimida tahlil qilinganda, eng ko‘p yangi subyektlar savdo sohasida – **4 993** ta (yoki **33,8 %**), xizmatlar sohasida – **3 066** ta (yoki **20,8 %**), sanoat sohasida – **3 268** ta (yoki **22,2 %**), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida – **2 765** ta (yoki **18,7 %**) va qurilish sohasida – **658** tani (yoki **4,5 %**) tashkil etgan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari

Yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko‘rsatkichlari, % da




■ 2023- y. ■ 2024- y.




Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagи ulushi dinamikasi (yanvar-iyun oylarida), % da

2024- yilning yanvar-iyunida YAHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **66,6** % ni tashkil qilib, 2023- yilning tegishli davriga nisbatan **0,2** pasaygan.




2024- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo‘lgan tarmoqlari, % da




2024- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlikning eng yuqori ulushlari qishloq xo‘jaligida **99,4** % ni, yo‘lovchi aylanmasida **95,7** % ni, chakana savdoda **96,1** % ni, yuk tashishda **94,5** % ni yo‘lovchi tashishda **94,2** % ni, qurlilishda **87,9** % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari (yanvar-iyun oylarida)


Kichik tadbirkorlik subyektlarida sanoat faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarida qurilish faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarida investitsiya faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari (yanvar-iyun oylarida)


Kichik tadbirkorlik subyektlarida qishloq xo‘jaligi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko‘rsatishdagi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati


2024- yilning yanvar-iyunida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, mlrd so‘m

Urganch sh.	668,6
Urganch	364,7
Xonqa	260,2
Qo'shko'pir	177,9
Shovot	128,4
Gurlan	127,1
Tuproqqa'l'a	126,9
Yangibozor	124,9
Xiva sh.	113,8
Bog'ot	107,6
Xiva	94,4
Hazorasp	89,4
Yangiariq	85,2

2024- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **2469,1** milliard so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Urganch shahri (**668,6** mlrd. so‘m), Urganch (**364,7** mlrd. so‘m), Xonqa (**260,2** mlrd. so‘m), Qo'shko'pir (**177,9** mlrd. so‘m) va Shovot (**128,4** mlrd. so‘m) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi. Yangiariq tumanida (**85,2** mlrd. so‘m) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo‘lib qolmoqda.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmida eng yuqori ulushga ega hududlar, % da




Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati

2019-2024- yillarning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi dinamikasi, mlrd. so‘m

2024- yil yanvar-iyunida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **20,7 %** ni tashkil etdi.




2024- yilning yanvar-iyunida hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Urganch tumani (**57,5 %**), Xiva sh. (**56,0 %**), Qo'shko'pir tumani (**48,4 %**), Xonqa tumani (**42,7 %**), Bog'ot tumani (**40,8 %**), Yangibozor tumani (**37,3 %**), Urganch sh. tumani (**36,3 %**), Hazorasp tumani (**32,9 %**), Xiva va Gurlan tumani (**31,9 %**) ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish faoliyati

2019-2024- yillarning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi hajmi va ulushi dinamikasi



2024- yilning yanvar-iyunida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi va ulushi

Urganch sh.	423,6	73,4
Xiva sh.	216,9	97,6
Bog'ot	110,7	77,0
Gurlan	116,8	97,4
Qo'shko'pir	162,9	98,0
Urganch	424,4	95,6
Hazorasp	224,6	95,0
Tuproqqa'l'a	56,5	81,3
Xonqa	196,2	86,9
Xiva	268,8	83,7
Shovot	136,4	86,5
Yangiariq	119,3	96,0
Yangibozor	151,9	95,0


hajmi, mlrd. so‘mda ↑
ulushi, % da ↑

2024- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **2609,0** milliard so‘mni yoki qurilish ishlari umumiyligi hajmining **87,9** % ini tashkil etdi. O‘sish sur’ati 2023- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **101,4** % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Urganch (**424,4** mlrd. so‘m), Urganch shahri (**423,6** mlrd. so‘m), Xiva (**268,8** mlrd. so‘m), Hazorasp (**224,6** mlrd. so‘m), Xiva shahrida (**216,9** mlrd. so‘m), Xonqa (**196,2** mlrd. so‘m) Qo'shko'pir (**162,9** mlrd. so‘m) hamda Yangibozor (**151,9** mlrd. so‘m) tumanlarida qayd etildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya faoliyati


2019-2024- yillarning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari investitsiya hajmining o‘zgarish dinamikasi, mlrd. so‘mda




2024- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi **3138,7** milliard so‘mni yoki jami investitsiya hajmining **52,2 %**ini tashkil etdi. O‘sish sur’ati 2023- yilning mos davriga nisbatan **142,9 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari hajmi Urganch shahri (**762,3** mlrd. so‘m), Xiva shahri (**619,8** mlrd. so‘m), Hazorasp (**351,3** mlrd. so‘m), Urganch (**341,1** mlrd. so‘m), Xonqa (**211,9** mlrd. so‘m), Shovot (**206,9** mlrd. so‘m), Yangibozor (**163,2** mlrd. so‘m) hamda Qo’shko’pir (**118,8** mlrd. so‘m) tumanlarida qayd etildi.

2019-2024- yillarning yanvar-iyunida kichiktadbirkorlik subyektlarining investitsiyadagi ulushi dinamikasi, % da



2024- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmi va ulushi




■ hajmi, mlrd. so‘m ■ ulushi, %

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo‘jaligi faoliyati

2024- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi **11 192,6** mld. so‘mni yoki jami qishloq xo‘jaligi mahsuloti hajmining **99,4** % ini tashkil etdi. O’sish sur’ati 2023- yilning tegishli davriga nisbatan **104,8** % ni tashkil qildi.

2019-2024- yillarning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari qishloq xo‘jaligi hajmining o‘zgarish dinamikasi, mld. so‘mda




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi Qo’shko‘pir (**1282,4** mld. so‘m), Urganch (**1266,3** mld. so‘m), Xonqa (**1155,4** mld. so‘m), Shovot (**1116,1** mld. so‘m), Bog’ot (**1084,4** mld. so‘m) hamda Gurlan (**1083,8** mld. so‘m) tumanlarida qayd etildi.

2024- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi va ulushi

Urganch sh.	236,6	97,2
Xiva sh.	45,9	100,0
Bog’ot	1084,4	99,8
Gurlan	1083,8	99,8
Qo’shko’pir	1282,4	99,5
Urganch	1266,3	99,7
Hazorasp	1078,1	99,9
Tuproqqa'l'a	277,4	99,8
Xonqa	1155,4	99,7
Xiva	912,7	99,8
Shovot	1116,1	99,6
Yangiariq	854,0	96,5
Yangibozor	799,5	99,5


hajmi, mld. so‘mda
ulushi, % da

2019-2024- yillarning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo‘jaligidagi ulushi dinamikasi, % da



Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo faoliyati

2019-2024- yillarning yanvar-iyunida oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmi va ulushi dinamikasi



2024- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **5 821,2** mlrd. so‘nni yoki umumiyligi chakana savdo tovar aylanmasining **96,1 %**ini tashkil etib, o‘sish sur’ati 2023- yilning tegishli davriga nisbatan **110,2 %** ni tashkil qildi.


2024- yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida chakana savdo tovar aylanmasi va ulushi

Urganch sh.	1550,7	91,3
Xiva sh.	254,3	95,5
Bog'ot	309,5	97,5
Gurlan	493,0	99,5
Qo'shko'pir	266,1	99,4
Urganch	761,0	99,0
Hazorasp	608,9	96,7
Tuproqqa'l'a	136,0	99,8
Xonqa	377,2	99,4
Xiva	197,1	94,3
Shovot	444,0	97,2
Yangiariq	274,2	99,5
Yangibozor	149,2	95,1

hajmi, mld. so‘mda ↑
ulushi, % da ↑


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Urganch shahri (**1550,7** mlrd. so‘m), Urganch (**761,0** mlrd. so‘m), Hazorasp (**608,9** mlrd. so‘m), Gurlan (**493,0** mlrd. so‘m), Shovot (**444,0** mlrd. so‘m), Xonqa (**377,2** mlrd. so‘m) va Bog'ot (**309,5** mlrd. so‘m) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

2019 va 2024- yillarning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmining o‘zgarishi, mlrd. so‘m




Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatish faoliyati

2019-2024- yillarning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining ko'rsatilgan xizmatlar hajmidagi ulushi dinamikasi, % da



2024- yilning yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida xizmat ko'rsatish hajmi, mldr. so'mda





2024- yil yanvar- iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **4207,9** mldr. so'mlik xizmatlar ko'rsatildi yoki ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **57,5 %** ini tashkil qildi va o'sish sur'ati 2023- yilning tegishli davriga nisbatan **115,2 %** ni tashkil qildi.



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p xizmatlar hajmi Urganch shahri (**970,1** mldr. so'm), Urganch (395,4 mldr. so'm), Xonqa (349,0 mldr. so'm), Hazorasp (297,0 mldr. so'm), Bog'ot (293,0 mldr. so'm), Gurlan (287,2 mldr. so'm) va Qo'shko'pir (285,4 mldr so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyati (yanvar-iyun oylarida)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

2019-2024- yillarning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmidagi ulushi dinamikasi, % da



2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y. 2024- y.


2024- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining hajmi va ulushi

Urganch sh.	1356,9	9,2
Xiva sh.	8841,7	88,2
Bog'ot	8369,9	81,6
Gurlan	9751,2	71,3
Qo'shko'pir	8956,3	97,8
Urganch	9405,0	76,0
Hazorasp	6335,5	100,0
Tuproqqa'l'a	50,1	0,5
Xonqa	16345,8	76,3
Xiva	4429,3	42,7
Shovot	2752,1	10,7
Yangiariq	3178,1	52,2
Yangibozor	16167,7	93,5

hajmi, ming AQSH dollar


ulushi, % da

2024- yilning yanvar-iyunida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi **97 578,0** ming AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining **57,5** % ini tashkil etdi.



Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

2019-2024- yillarning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi hajmidagi ulushi dinamikasi, % da



2024- yilning yanvar-iyunida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **104 532,2** ming AQSH dollarini yoki jami importning **50,1** % ni tashkil etdi.


2024- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da



2024- yilning yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Hazorasp tumanida – **100,0** %, Urganch tumanida – **93,7** %, Xonqa tumanida – **92,1** %, Xiva sh. – **87,9** %, Bog'ot tumanida – **87,2** %, Yangibozor tumanida – **82,9** %, hamda Urganch sh. – **80,1** % ni tashkil etdi.

Hazorasp	100,0
Xiva	58,9
Urganch	93,7
Xiva sh.	87,9
Bog'ot	87,2
Urganch sh.	80,1
Xonqa	92,1
Yangiariq.	55,0
Gurlan	55,5
Yangibozor	82,9
Shovot	23,6
Qo'shko'pir	19,5
Tuproqqa'l'a	2,2

Kichik tadbirkorlik subyektlarininig transport faoliyati



2024- yilning yanvar-iyunida avtomobil transportida yuk tashishning umumiylajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **94,5** % ni tashkil etdi. 2023- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **102,7** % ni tashkil qildi.


2024- yilning yanvar-iyunida avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiylajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **82,6** % ni tashkil etgan bo'lib, 2023- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **102,5** % ni tashkil qildi.

2024- yilning yanvar-iyunida avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiylajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **94,2** % ni tashkil etib, 2023- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **103,9** % ni tashkil qildi.

2024- yilning yanvar-iyunida avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiylajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **95,7** % ni tashkil etib, 2023- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **102,0** % ni tashkil qildi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yil II chorak bo‘yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi, birlikda




2024- yil **II** chorak yakunlariga ko‘ra, kichik korxona va mikrofirmalar o‘rtasida tanlanma kuzatuvlar o‘tkazildi.

Ushbu so‘rovnoma da **1 085** ta kichik korxona va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning **398** (**36,7 %**) tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. **649** ta (**59,8 %**) subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan **38** ta (**3,5 %**) subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) savdoda – **40,1 %** (**435** ta), xizmatlar sohasida – **30,8 %** (**334** ta), sanoatda – **13,9 %** (**151** ta), qurilishda – **6,4 %** (**70** ta), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida – **8,8 %** (**95** ta)ni tashkil etdi.

2024- yil II chorak bo‘yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi, % da



Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yil II chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi

264	Urganch sh.	24,3
78	Xiva sh.	7,2
81	Bog'ot	7,4
59	Gurlan	5,4
44	Qo'shko'pir	4,1
116	Urganch	10,7
75	Hazorasp	6,9
29	Tuproqqal'a	2,7
79	Xonqa	7,3
57	Xiva	5,3
67	Shovot	6,2
77	Yangiariq	7,1
59	Yangibozor	5,4


Birlik

Ulushi, foizda

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p kuzatuvida ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalar Urganch shahri (**264** ta), Urganch (**116** ta), Xonqa (**81** ta) va Xonqa(**79** ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2024- yillarning II choragi uchun umumiy iqtisodiy holatini baholanishi dinamikasi (joriy davrga nisbatan), birlik




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalarning soni 2019- yilning II choragida **288** tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning II choragiga kelib esa **398** taga yetgan yoki 2019- yilning II choragiga nisbatan **110** taga oshgan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning soni 2019- yilda **562** ta bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning yanvar-iyunida **649** ta yoki **87** taga oshgan.

O'z nabatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2019- yilda **23** tani tashkil etgan bo'lsa, 2024- yilning yanvar-iyunida **38** tani tashkil etgan va bu ko'rsatkich 2019- yilga nisbatan **15** taga oshgan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2024- yillarning II choragida umumiyl iqtisodiy holatini baholaganlar soni (o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan), birlik



yaxshilangan

o‘zgarishsiz

yomonlashgan


Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo‘yicha o‘tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma’lumotlari natijasi bo‘yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o‘zlarining umumiyl iqtisodiy vaziyatini o‘tgan yilning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalarining soni 2019- yilning II choragida **516** tani tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2024- yilning II choragiga kelib esa **425** tani tashkil etib yoki 2019- yilga nisbatan **91** taga kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o‘zgarishsiz deb baholagan korxonalarining soni 2019- yilning II choragida **191** ta bo‘lgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2024- yilning II choragida **519** ta yoki **328** taga oshgan.

O‘z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalarining soni esa 2019- yilning II choragida **13** tani tashkil etgan bo‘lsa, 2024- yilning II choragiga kelib, bu ko‘rsatkich **31** tani tashkil etib **18** taga oshgan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2024- yillarning II choragida umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (korxonaning joriy holati bo‘yicha), % da




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo‘yicha o‘tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma’lumotlari natijasi bo‘yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhitini holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o‘zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar ulushi 2019- yilning II choragida **32,9** % ni tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2024- yilga kelib esa **36,7** % ga yetgan yoki 2019- yilga nisbatan **3,8** % birlikka oshgan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning ulushi 2019- yilning II choragida **64,4** % bo‘lgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2024- yilning II choragida **59,8** % yoki **4,6** % birlikka kamaygan.

O‘z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2019- yilning II choragida **2,7** % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2024- yilning II choragiiga kelib, bu ko‘rsatkich **3,5** % ga yetgan yoki **0,8** % ga oshgan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2024- yillar II choragida umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (o‘tgan yillarning mos davriga nisbatan), % da




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo‘yicha o‘tkaziladigan tanlanma kuzatuvi ma‘lumotlari natijasi bo‘yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o‘zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o‘tgan yillarning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalar ulushi 2019- yilning II choragida **71,1** % ni tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2024- yilga kelib esa **43,6** % ga yetgan yoki 2019- yilning **II** choragida nisbatan **27,5** % birlikka kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o‘zgarishsiz deb baholagan korxonalarining ulushi 2019- yilning II choragida **26,6** % bo‘lgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2024- yilning yanvar-iyunida **53,2** % yoki **26,6** % birlikka oshgan.

O‘z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalarining ulushi esa 2019- yilning II choragida **2,3** % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2024- yilning **II** choragiga kelib, bu ko‘rsatkich **3,2** % yoki **0,9** % birlikka oshgan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yilning II choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da




Kichik korxona va mikrofirmalarning 2024- yilning **II** choragida o‘tkazilgan kuzatuv natijalariga ko‘ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha eng ko‘p ulushi ulushi qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida – **44,2** % ni, sanoatda – **40,4** % ni, xizmatlar sohasida – **37,7** % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko‘p ulushi savdoda – **63,4** % ni, xizmatlar sohasida – **60,2** % ni, sanoatda – **56,3** % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarining eng ko‘p ulushi qurilishda – **12,9** % ni, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida – **5,3** % ni, sanoatda – **3,3** % ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yilning II choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



2024- yilning II choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi sanoatda – **55,0** % ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **54,7** % ni va xizmatlar sohasida – **53,0** % ni tashkil etdi.

Shuningdek, yaqin 3 oydagagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qurilishda – **52,9** % ni, xizmatlar sohasida – **46,7** % ni, savdoda – **46,4** % ni tashkil etdi.

Yaqin 3 oydagagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qurilishda – **8,5** % ni, savdoda – **2,6** %, sanoatda – **1,3** % ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yilning II choragida biznesga ishonch muhitini baholash, % da


	O‘tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o‘zgarishlar		
	Ko‘payish (yaxshilanish*)	o‘zgarishsiz	Kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiyligi aylanmasi	39,5	54,1	6,4
Band bo‘lganlar soni	25,0	70,9	4,1
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	30,4	66,1	3,5
Moliyaviy mablag‘lar: o‘z, kredit va qarz mablag‘lari	26,1	66,6	7,3
Raqobat muhiti	41,5	55,7	2,8

	Yaqin 3 oyda o‘zgarishlar istiqboli		
	Ko‘payish (yaxshilanish*)	o‘zgarishsiz	kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiyligi aylanmasi	47,8	49,8	2,4
Band bo‘lganlar soni	27,9	70,2	1,9
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	33,8	64,1	2,1
Moliyaviy mablag‘lar: o‘z, kredit va qarz mablag‘lari	29,1	63,9	7,0
Raqobat muhiti	41,7	56,5	1,8

* Faqat raqobat muhitiga tegishli


Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

**2024- yilning II choragida biznesga ishonch muhitini baholash,
o‘tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o‘zgarishlar, % da**



■ ko‘payish (yaxshilanish*) ■ o‘zgarishsiz ■ kamayish (yomonlashish*)

2024- yilning II choragida biznesga ishonch muhitini baholash, yaqin 3 oyda o‘zgarishlar istiqboli, % da



■ ko‘payish (yaxshilanish*) ■ o‘zgarishsiz ■ kamayish (yomonlashish*)

* Faqat raqobat muhitiga tegishli